QASHQADARYO VILOYATI
KITOB TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I

180700 Kitob tumani Katta yo‘l ko‘chasi 32-uy tel: 75-54-25-307

2022 - yil 1 - iyul 294-4-62-Q/22 Kitob tuman hokimligi

Kitob tuman hokimining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ-huquqiy tusdagi ayrim qarorlarini bekor qilish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘z ahamiyatini yo‘qotgan qonunchilik hujjatlarini qayta ko‘rib chiqish tizimini joriy etish orqali mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 27-sentabrdagi PF–6075-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, va 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-sentabrdagi PF–6075-son Farmonida qadar mahalliy davlat hokimiyati organlarining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ-huquqiy hujjatlarini bekor qilish choralarini ko‘rish belgilanganligi inobatga olinsin.

2. Kitob tuman hokimi tomonidan qabul qilingan eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ tusdagi qarorlar ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. Axborot xizmati (Q.Oqilov) mazkur qarorning rasmiy e’lon qilinishini va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

4. Mazkur qaror rasman e’lon qilingandan keyin kuchga kirishi belgilansin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimning birinchi o‘rinbosari Z.Ergashev zimmasiga yuklatilsin.

Kitob tuman hokimi **Pardayev U.B**

Kitob tuman hokimining
2022 yil 1 iyuldagi
294-4-62-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Kitob tuman hokimining o‘z kuchini yo‘qotgan deb e’tirof etilayotgan ayrim qarorlari

RO‘YXATI

1. Kitob tuman hokimining «Kitob tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq kamrab olish yuzasidan tumandagi umumta’lim muassasalarining mikroxududlarini belgilash to‘g‘risida»gi 2019 yil 24 avgustdagi X-1961/08 qarori.